

RUS TILI DIPLOMATIYA SOHASIDA

Ergashev Elshod Erkin o'g'li
*Toshkent Xalqaro Moliyaviy
Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola rus tilining xalqaro munosabatlardagi o'rni, til rivojlanish tarixi, siyosiy jarayonlardagi ishtiroki hamda bugungi kundagi roli va ahamiyatini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *rus tili, rus tili tarixi, siyosiy ishtirok, xalqaro munosabatlar, til siyosati, madaniy diplomatiya, til rivoji*

KIRISH

Yevropa va Osiyoni bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini bajaruvchi Rossiya Federatsiyasi o'zining geografik joylashuvi va boy tarixiy merosi tufayli asrlar davomida xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida muhim rol o'ynab kelgan. Uning diplomatik faoliyati har doim jahon sahnasida katta ahamiyat kasb etgan. Rossiya tarixi -bu imperiyalar, inqiloblar, urushlar va tiklanishlar tarixidir. Bu tarix rus tilining shakllanishi va bugungi xalqaro mavqeini tushunishda asosiy kalitlardan biridir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi:

Mustaqillikdan keyin Markaziy Osiyo va Boltiqbo'yi davlatlarida rus tilining hozirgi maqomini, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini tahlil qilish, shuningdek, bu tilning ilm-fan, madaniyat va xalqaro aloqalardagi zamonaviy rolini ochib berish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston misolida rus tilining siyosiy va ijtimoiy hayotdagi mavqeini mustaqillikdan keyingi jarayonlarda o'rganish.
2. Boltiqbo'yi mamlakatlarining rus tiliga nisbatan olib borgan til siyosati va bu siyosatning shakllanishiga ta'sir etgan omillarni tahlil qilish.
3. XX–XXI asrlarda rus tilining ilm-fan va madaniyat rivojidagi hissasini, ayniqsa, xalqaro miqyosdagi ta'sirini tahlil etish.
4. Bugungi kunda rus tilining xalqaro siyosat, ilmiy tadqiqotlar va diplomatiya sohasidagi mavqeini o'rganish.
5. Turli hududlarda rus tilining maqomi va qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni aniqlash va ularni ilmiy tahlil qilish.

Dastavval, rus tili aynan Kiev Rusi davrida IX–XII asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, hali ko'p jihatdan slavyan-krill yozuviga aslangan cherkov tili (eski cherkovslavyan tili) sifatida diniy matnlar va yilnomalarda qo'llanilgan. Buyuk Pyotr I davriga kelib alifbo soddalashtirildi va rus yozuvining asosi yaratildi. Shu bilan birga eski cherkovslavyan va adabiy til ajralib, rus tiliga nemis, fransuz, golland tillaridan ko'p so'zlar kirib kela boshlagan. Ilm-fan, harbiy soha va davlatlararo aloqada rus tili muhim ro'l kasb etgan

"Rus tili -oltin davri" Rus tilining otasi sifatida tan olina zamonasining buyuk shoiri,zamonaviy rus adabiy tilining asoschisi Aleksandr Sergeyivich Pushkin rus tilining uslubiy boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi.Bugungi kunda rus tilida ishlatilayotgan ko'plab ibora ,maqollar,so'zlashuv uslublari aynan Pushkin davrida shakllanga.Pushkin o'z asarlarida xalq tili bilan adabiy tilni mahorat bila uyg'unlashtirib ,rus tilining eng nafis va chuqur qatlamlarini ochib berdi. Bu davrda nafaqat Pushkin, balki Lermontov, Gogol, Tolstoy, Dostoyevskiy kabi adiblar ham til taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan.

1917-yildagi "Oktabr inqilobi"dan so'ng rasmiy ravishda SSSR tashkil topdi. Dastlab Rossiya,Ukraina , Belarusiya va Kavkaz ortidan iborat ittifoq keyinchalik, 15ta davlatni Latviya, Litva, Estoniya kabi hamda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izistondek Markaziy Osiyo davlatlarini o'z ichiga olgan. "Sovet Ittifoqi" tashkil topgandan so'ng rus tili nafaqat rasmiy til, balki, kommunikatsiya, madaniy va siyosiy sohalarida ham dominant tilga aylandi. Rossiyaning markazlashgan siyosiy hokimiyati tufayli, rus tili ko'plab mahalliy tilni o'rnini bosib, hatto ona tili o'rnida ishlatilgan . O'zbekiston, Qozog'iston, Armaniston , Gruziya , Ukraina kabi davlatlarda kishilar o'rtasidagi umumiy aloqa til sifatida rus tili barcha etnik guruhlar o'rtasida teng darajada ishlatilgan,natijada hozirgi kunga qadar qariyalar yosh avlodga nisbatan rus tilini yaxshiroq bilishi va ko'proq qo'llashi bilan ajralib turadi.

Mustaqillikka erishgan davlatlarning barchasi o'z davlat tillarini qabul qilishgan bo'lsada,rus tili eski avlod vakillari orasida ancha vaqt muomiladan chiqmagan.Xususan bugung kunda ham buni bir necha davlatlarda kuzatish mumkin.

Qozog'iston. Markaziy Osiyo davlatlaridan biri bo'lmish Qozog'istonda rus tili rasmiy til bo'lmasada,xalqaro muloqot va rasmiy idoralarda foydalaniladigan rasmiy maqomdagi til sifatda belgilangan.Konstitutsiyasida ham rus tili maqomi qayd etilgan. Qozog'istonda aholinig katta qismi rus tilida erkin so'zlashadi

Qirg'iziston. Qirg'izlarda esa rus tili rasmiy til maqomiga ga .2000- yillarda qabul qilingan qonun bilan rus tiliga rasmiy maqom berilgan va u davlat idoralarida va qonun hujjatlarida qirg'iz tili bilan ishlatiladi.

O'zbekiston. 130dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiluvchi O'zbekistonning eng yirik millat vakillari-ruslar, tojiklar,qozog'lar,turkmanlarni tashkil etadi ."Davlat tili haqida"gi qonunga binoan,faqat o'zbek tili davlat tili deb belgilangan. Lekin amalda rus tili hanuzgacha ayrim idoralarda,ta'lim muassalarida,xalqaro hamkorlikda va ommaviy axborot vositalarida keng ishlatiladi.Garchi yosh avlod orasida rs tilidan foydalanish biroz kamaygan bo'lsa-da,katta avlod va ilmiy hamda diplomatik doiralara rus tilining o'rni saqlnib qolgan. 1993-yil 22-yanvarda imzolangan MDH Ustavi 35-moddasiga muvofiq, rus tili ish yuritish tili sifatida belgilangan. Bu holat rus tiliga davlat tili bilan teng maqom berilayotganini ko'rsatadi.

MDHga a'zo davlatlar, jumladan, O'zbekiston ham ta'lim, tarbiya, madaniyat va OAV sohalarida millatlararo nizolarni oldini olish va o'zaro tushunishni mustahkamlash majburiyatini olgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari ikki tilda — o'zbek va rus tillarida nashr etilmoqda. Rus tilini OAVda saqlab qolishda internet tarmoqlari, radio, televideniye, gazeta va jurnallar hamda tijorat reklamasi asosiy rol o'ynamoqda. Aytish mumkinki, Toshkent shahridagi deyarli barcha reklama bannerlari, afishalar, flayerlar va stikerlarda ma'lumotlar ko'pincha ikki tilda beriladi. O'zbekiston hukumati internet portallarida uch til — rus tili (millatlararo aloqa uchun), o'zbek tili (davlat tili) va ingliz tili (xorijiy til) ishlatiladi. Aholining salmoqli qismi rus tilidagi versiyadan foydalanadi. Davlat tili mintaqada faol targ'ib qilinayotgan bo'lsa-da, rus tili OAVda o'z mavqeini saqlab qolmoqda. Bundan tashqari, ayrim o'zbek realiyalari, jumladan rus tili orqali, leksik boylikni kengaytirmoqda. Masalan, rus tilidagi nashrlarda "Navro'z", "sumalak", "mahalla", "Oliy Majlis" kabi an'anaviy o'zbek so'zlari uchraydi.

10. (Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023 Шахида Ў.Т)

2004-Yil "Yevropa Ittifoqi". Boltiqbo'yi davlatlari bo'lmish Latviya ,Litva ,Estoniyada ham rus tili asosiy aloqa va boshqaruv tili bo'lib xizmat qilgan ,naijada mahalliy tillarning mavqeiga zarar bergan . 1991-yildan so'ng rus tilini rasmiy til sifatda qabul qilishn rad etishdi.2000-yillardan boshlab Rossiya va G'arb o'rtasidagi munosabatlar taranhlashganligi ,harbiy va siyosiy integratsiya jarayonlarida Boltiqbo'yi davlatlari NATO va Yevropa Ittifoqi a'zoligiga kirib ,Rossiya ta'siridan chiqishga intilgan. Latviya,Litva va Estoniya konstitutsiyalari va qonunlariga ko'ra,faqat milly tillar davlat tili maqomiga ega bo'ldi.Rus tilidagi ta'lim ,ommaviy axborot vositalari va davlat muassalarida foydalanish qisqartirildi.

XX asrda rus tili ilm-fan sohasida muhim ahamiyat kasb etgan. Sobiq SSSR davrida amalga oshirilgan ko'plab ilmiy izlanishlar va kashfiyotlar aynan rus tilida olib borilgan bo'lib, ular butun dunyo ilmiy hamjamiyatining e'tiborini tortgan. Jumladan, Dmitriy Mendeleyev tomonidan tuzilgan kimyoviy elementlar davriy jadvali bugungi kunda ham jahon ilm-fani uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Kosmonavtika sohasida esa Yuriy Gagarin insoniyat tarixida ilk bor koinotga chiqqan inson sifatida tarix sahifalaridan o'rin olgan. Bugungi kunda ham "Roscosmos" — Rossiya kosmik agentligi faoliyatini davom ettirib, xalqaro loyihalarda faol ishtirok etmoqda.

Shuningdek, matematika, fizika, tibbiyot va tabiiy fanlar sohalarida rus olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Hozirda ham Rossiyada chop etilayotgan ilmiy jurnallar va ilmiy nashrlar xalqaro miqyosda o'z mavqeini saqlab kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda,rus tili qadimiy tillardan biri bo'lib,uzoq yillar davomida rasmiy aloqa tili bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi kunda esa, siyosiy o'zgarishlar va integratsiya jarayonlari tufayli rus tilining rasmiy maqomi kamaygan bo'lsa-da, uning ilm-fan va madaniyatdagi roli hamon saqlanib qolmoqda. Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistonda kabi Markaziy Osiyo davlatlarida rus tili xalqaro aloqalar, ilm-fan va ta'limda keng qo'llaniladi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotida rasmiy tillardan biri bo'lib

qolmoqda. Ko'plab davlatlar, jumladan, sobiq SSSR mamlakatlari, rus tilini diplomatik va tijorat sohalarida ishlatishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Politics of Russian Language Beyond Russia (Edited by Christian Noack)
https://unog.primo.exlibrisgroup.com/discovery/fulldisplay?docid=alma991002480246002391&context=L&vid=41UNOG_INST:DHL&lang=en&search_scope=Alma_DHL&adaptor=Local%20Search%20Engine&tab=alma_dhl&query=any%2Ccontains%2CRussian%20language%20in%20world%20of%20diplomacy
2. THE SIGNIFICANCE OF THE RUSSIAN LANGUAGE IN GLOBAL COMMUNICATION, SCIENCE, CULTURE, AND DIPLOMACY May 2023Conference: «МИР ГЛАЗАМИ МОЛОДЫХ. СТУДЕНЧЕСКИЕ ЧТЕНИЯ»
https://www.researchgate.net/publication/371082247_THE_SIGNIFICANCE_OF_THE_RUSSIAN_LANGUAGE_IN_GLOBAL_COMMUNICATION_SCIENCE_CULTURE_AND_DIPLOMACY
3. The Role of Russian Language in Public and Science Diplomacy Posted: 22 Dec 2022 Marina Krynzina https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4299426
4. The Role and Significance of the Russian Language in Modern World(Journal: EurasianResearchBulletin)
<https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/download/2626/2245/2645>
5. The Language of Diplomacy: A Global Communication Mosaic (Global diplomatic forum) <https://www.linkedin.com/pulse/language-diplomacy-global-communication-mosaic-1m3de>
6. Building the Russian World: Cultural Diplomacy of the Russian Language and CulturalIdentity(Page/Article:127-143)
[tps://jomec.cardiffuniversitypress.org/articles/10.18573/j.2017.10143](https://jomec.cardiffuniversitypress.org/articles/10.18573/j.2017.10143)
7. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uzDecember 2024 / Volume 5 Issue 12The role of the Russian language in the modern world
<https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-the-russian-language-in-the-modern-world>
- 8.THE SIGNIFICANCE OF THE RUSSIAN LANGUAGE IN GLOBAL COMMUNICATION, SCIENCE, CULTURE, AND DIPLOMACY
<https://repository.rudn.ru/en/records/article/record/103927/>
9. РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ АРЕНЕ
Электронный научно-практический журнал «Филология и литературоведение»
<https://philology.snauka.ru/2014/02/672>
10. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023 ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1 635 March, 2023 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal
ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННЫХ РЕАЛИЯХ УЗБЕКИСТАНА Шахида Э.Т